

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil “30” 06





O‘RGANILAYOTGAN MINTAQA (MAMLAKAT) ADABIYOTI


(YAPON ADABIYOTI)

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	– San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230 000	– Tillar
Ta‘lim yo‘nalishi:	60230100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Yaponshunoslik oliy maktab boshlig'i  Xalmurzayeva N.T.

ARM boshlig'i  Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi MA15-618	O'quv yili 2027/2028	Semestr 5,6	ECTS - Kreditlar 8,10	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 8,10	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) adabiyoti (Yapon adabiyoti)	216	324	540
2.	<p align="center">I. Fanni o'qitishdan maqsad</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad: oliy ta'lim muassasalari talabalariga mumtoz va zamonaviy yapon adabiyotidan chuqur bilimlar berish. "O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) adabiyoti (Yapon adabiyoti)" fanidan chuqur nazariy bilimlar, badiiy adabiyotning so'z san'ati sifatida o'ziga xosligi, adabiy hodisa va jarayonlarga ilmiy yondashuv to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - yapon adabiyotining tarkibiy qismlari, uning yapon badiiy so'z san'atini o'rganuvchi fan ekanligi; -yapon adabiyotining qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixi; -yapon adabiyotshunosligining maktab va yo'nalishlari; -badiiy adabiyotning vazifalari va badiiy tafakkurning voqelikka munosabati; -yapon adabiyotida adabiy metod, janr va uslublarning munozarali masalalari; -badiiy adabiyotda, xususan, yapon adabiyotida qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalari, badiiy san'atlar, portretlar; - yapon adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rni va uning bashariyat taraqqiyotidagi ulushi haqida tasavvurga ega bo'lishi. <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Osaka universiteti¹ (QS 85), Nagoya universiteti² (QS 152) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p>			

¹ https://koan.osaka-u.ac.jp/campusweb/campusquare.do?_flowExecutionKey=c1ECDAF2C-CCAF-E9E9-5089-B A12BD3820C6 kDD897141-526C-7288-1E2A-69F0F29C4E12

² https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000161202.html
https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000121306.html
https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000121303.html
https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000164006.html
https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000123311.html

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

QADIM VA ILK O'RTA ASR ADABIYOTI

1-mavzu. Yapon adabiyotini shakllanishi va davrlashtirish masalalari

Yapon adabiyotining shakllanishi va davrlashtirish masalalari. Yapon adabiyotining vujudga kelishida xalq og'zaki ijodining ahamiyati. Ilk yozma yodgorliklar haqida ma'lumot. Kojiki, Nihongi, Fudoki va Manyoshyu tarixiy manbalarining yuzaga kelishi. Yapon xalq og'zaki ijodi.

2-mavzu. Nara davrida tarixiy-madaniy jarayonlar (VII-VIII asrlar)

Nara davrida ijtimoiy hayot. Nara davrida buddaviylik va shinto dinining ahamiyati. Nara davrida adabiyotning rivojlanishi va taraqqiy yetishi. Nara davrining adabiyoti, san'ati va madaniyati. Ilk yozma manbalarning yaratilish sharoitlari. Nazm va nasrning yuzaga kelishi

3-mavzu. "Kojiki" yodgorligi

Yapon xalq ogzaki ijodi. Yozma adabiyotning yuzaga kelishi. Kojiki tarixiy va afsonaviy antologiyasining yaratilishi. Kojiki avval uning muallifi haqida ma'lumot. Kojiki asarida uchraydigan afsonalar va ularning tahlili. Izanami, Izanagi va Amaterasu bilan bog'liq ilk afsonalar ³

4-mavzu. "Manyoshyu" she'riy to'plamining badiiyati

Manyoshyu she'riy antologiyasining yaratilishi. Tanka janrining xususiyatlari va Otomo no Tabito ijodi. Manyoshyu to'plamida uchraydigan she'riy janr, shakllar va ularning mohiyati. Vaka, tanka, nagauta, renga kabi ilk davrlar yapon adabiyoti nazmida yuzaga kelgan janrlar va ularning tuzilishi. Manyoshyu she'riy to'plamining mavzular ko'lami. Manyoshyu she'riy to'plamida "may" mavzusi va she'rlarda badiiy so'zning qo'llanilish mahorati

5-mavzu. Xeyan davrida adabiy muhit va saroy adabiyoti rivojlanishi (IX-XII asrlar)

Xeyan davri adabiy janrlarning tavsifi. Xeyan davrida saroy madaniyati. Xeyan davrida adabiy jarayonlar. Saroy adabiyoti rivojlanishi bilan yuzaga kelgan janrlar va ularning xususiyatlari. Yangi yapon alifbosi "kana" ning yuzaga kelishi va uning adabiyotdagi ahamiyati. Xeyan davrida nasr va nazmning mavjud bo'lishi, hamda uning o'ziga xos jihatlari. Monogatari janrining shakllanishi, taraqqiy etishi va turlari.

³https://koan.osaka-u.ac.jp/campusweb/campusquare.do?flowExecutionKey=c1ECDAF2C-CCAF-E9E9-5089-BA12BD3820C6_kDD897141-526C-7288-1E2A-69F0F29C4E12

6-mavzu. "Monogatari" nasriy adabiyoti. "Taketori monogatari" va "Ochikubo monogatari" yodgorliklari

Xeyan davrida "monogatari" janrining yuzaga kelishi va uning xususiyatlari. "Monogatari" adabiyoti turlari. Uta monogatari, tsukuri monogatari, rekishi monogatari, setsuva monogatari kabi monogatari turlari va uning namunalari. "Taketori monogatari" ilk monogatari sifatida. "Taketori-monogatari" va "Ochikubo monogatari" tsukuri monogatarining namunasi sifatida yuzaga kelishi va mazkur asarlarning yapon madaniyatida tutgan o'rnini. "Taketori-monogatari" va "Ochikubo monogatari" qissalarining badiiy tahlili yapon adabiyotining xitoy va hind adabiyoti bilan aloqalari.

7-mavzu. "Uta monogatari" janrining xususiyatlari. "Ise monogatari" – liro-epik yodgorligi

"Uta monogatari" monogatari janrining bir turi sifatida. Uta monogatari janrining xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari. Uta monogatari namunalari va "Ise monogatari" asari. Uta monogatari janrida yozilgan asarlarning badiiy poetikasi. Ise monogatari asarining tuzilishi va mazmuni.

8-mavzu. "Kokinvakashyu" she'riy to'plami

Xeyan davri adabiyotida she'riyat. Ki no Tsurayuki she'riyati ijodi. "Kokinvakashyu" she'riy to'plamining yuzaga kelishi. "Kokinvakashyu" she'riy to'plamiga kiritilgan shoir va ularning ijodi. To'plamdan joy olgan she'rlarning mavzular ko'lami. Yugen estetikasining "Shinkokinvakashyu"da namoyon bo'lishi. She'rlardan na'munalar va ularning badiiy tahlili.

9-mavzu. Xeyan davri adabiyotining shakllanishida ayollarning o'rnini

Xeyan davrida saroy ayollarining adabiyotga kirib kelishi va ularning faoliyati Murasaki Shikibu Xeyan davri adabiyotida tutgan o'rnini. Sei Shyonagon hayoti va ijodi. Michitsuna no Haha va Izumi Shikibu Xeyan davri ayollar adabiyotiga qo'shgan hissasi. O'rta asrlar ayollar adabiyotining xususiyatlari va o'ziga xos xususiyatlari.

10-mavzu. "Nikki" va "zuixitsu" janrlarining shakllanishi

O'rta asrlar yapon adabiyotida "nikki" – kundalik janrining yuzaga kelishi va rivoj topishi. "Nikki" janrining yuzaga kelish sharoitlari. Kundalik janrining xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari. Ilk kundalik janrida yaratilgan asarlar. "Tosa nikki" va "Kagero nikki" kundalik janrining ilk va yetuk namunalari sifatida. Xeyan davri adabiyotida "zuixitsu" janrining yuzaga kelishi va uning xususiyatlari. "Zuixitsu" janri namunalari va Sei Shyonagon ijodi. "Makura no soshi" ilk zuixitsu namunasi sifatida yuzaga kelish sharoitlari. "Makura no soshi" asarining mavzular ko'lami, badiiyati. Sei Shyonagon asarida Xeyan davri saroy madaniyatining aks ettirilishi.

11-mavzu. Xeyan davri adabiyoti romani – "Genji monogatari"

Murasaki Shikibu Xeyan davri ayollar adabiyotining yorqin namoyandasi. "Genji monogatari" yapon mumtoz adabiyotining eng yetuk romani sifatida. "Genji monogatari" yaratilishi bilan bog'liq nazariyalar. "Genji monogatari" asarining badiiy tahlili. "Genji monogatari" asarining syujet, kompozitsiyasi va obzarlar tizimi.⁴

⁴https://koan.osaka-u.ac.jp/campusweb/campussquare.do?flowExecutionKey=c1ECDAF2C-CCAF-E9E9-5089-BA12BD3820C6_kDD897141-526C-7288-1E2A-69F0F29C4E12

12-mavzu. Setsuva adabiyoti
“Setsuva” adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiy yetishi. “Setsuva” adabiyotining mohiyati va o‘ziga xos jihatlari. “Nihon ryoiki”, “Konjyaku monogatari shyu”, “Uji shyui monogatari” to‘plamlari sesuva nasri namunasi sifatida. “Konjyaku monogatari” to‘plamining yuzaga kelishi, tuzilishi va mavzular ko‘lami⁵.

O‘RTA ASR ADABIYOTI

13-mavzu. Kamakura-Muromachi davrlarida tarixiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va madaniy hayot

Bakufu hokimiyati Kamakura shahri. Yaponiyada ikkinchi shyogunat Ashikaganing yuzaga kelishi va rivoj topishi. Siyosiy jarayonlarning adabiyotga ta’siri. Kamakura davrida adabiy jarayonlar va sharoit. Jangnoma eposlarning yuzaga kelishi va harbiy ruxdagi asarlarning yaratilishi. Samuraylarning “bushido” kodeksi va mazkur goyalarning adabiyotda aks ettirilishi. Muromachi davrida adabiy jarayonlar. Nasr, nazm va dramaturgiyada mavjud bo‘lgan janrlarning o‘ziga xos jihat va xususiyatlari. Xeyan davrida mavjud bo‘lgan saroy adabiyotining o‘z ahamiyatini yo‘qotishi va shahar adabiyotining yuzaga kelishi. Muromachi davrining Xeyan va Edo davrlari uchun ko‘prik davr sifatida mavjud bo‘lishi.

14-mavzu. “Gunki” janrining shakllanishi va uning janr xususiyatlari

“Gunki” janrining yuzaga kelishi va uning o‘ziga xos jihatlari. “Gunki” jangnoma asarlarining namunalari. Harbiy ruhdagi gunki janrining estetik jihatdan o‘ziga xos jihatlari.

15-mavzu. Heike monogatari yodgorligining janr xususiyatlari

“Heike monogatari” gunki janrida yaratilgan yetuk jangnoma asar sifatida. “Heike monogatari” asarining yuzaga kelishi va qisqacha mazmuni. Yodgorlikning mavzusi, g‘oyasi, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsion qurilishi, badiiy til xususiyatlari.

16-mavzu: Kamakura-Muromachi davrida setsuva va uning namunalari

“Kojidan” setsuva to‘plami. “Uji shyui monogatari” setsuva to‘plami. “Kokon chyomonjyu” setsuva to‘plami. “Konjyaku monogatari” setsuva to‘plami.

17-mavzu. Kundalik-xotiranomalar adabiyoti. Sayohatnomalar.

Avtobiografik qissalar

Kamakura va Muromachi davri adabiyotida kundalik-xotiranomalar adabiyoti va uning namunalari. Yapon adabiyotida sayohatnomalar va avtobiografik qissalar janri, ularning namunalari. Abutsu-ni kundaligi “Izayoi nikki”, “Kaidoki” sayohatnomasi”. “Shinjo hoshi nikki” yodgorligi. “Tovazugatari” avtobiografik qissasi.

18-19-mavzu. Kamakura davri adabiyotida “zuyxitsu” janri. Kamo no Chyomei ijodi va “Xojoki” yodgorligi.

⁵ https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000161202.html

Kenko hoshi ijodi va "Tsuredzuregusa" yodgorligi

Kamakura davrida zuyxitsu janrining mavjud bo'lish sharoitlari. Kamakura davri adabiyotiga tegishli zuyxitsu namunalari va ularning o'ziga xos jihatlari. Kamo no Chyomey ijodi. "Xojoki" asari Kamakura davrida yaratilgan zuyxitsu namunasi sifatida. "Xojoki" asarida Kamakura davriga xos diniy va falsafiy qarashlarning ifodalanishi. Kenko hoshi ijodi. "Tsuredzuregusa" yodgorligi Kamakura-Muromachi davri zuyxitsu namunasi sifatida.

20-mavzu. Saigyo ijodi

Saigyo hayoti va ijodiy faoliyati. Saigyo irik she'riyatida tabiat manzaralari, inson ruhiyati va falsafiy qarashlarning uyg'unligi. "Manyoshyu" va "Kokinshyu" an'alarining davomchisi sifatida Saigyo ijodi "Sankashyu" (Saigyo she'rlari to'plami). "Shinkokinshyu" dagi Saigyo she'rlari. Tabiat va inson ruhiyati tasviriga oid tanlangan tankalar⁶.

21-mavzu. "Otogizoshi" nasri

Otogizoshi nasri va uning badiiy xususiyatlari. Otogizoshi namunalari: "Hachikazuki", "Sarugenji", "Urashima Taro", "Bunshyo soshi", "Yokubue Soshi", "Hamaide soshi", "Izumi Shikibu", "Nosedzaru soshi", "Karaito no soshi" va boshqalar. Otogizoshi namunalarning syujet va kompozitsion xususiyatlari, qahramonlari.

22-mavzu. No teatri va "kyogen"

No teatri va uning o'ziga xos jihatlari. No teatrining yapon madaniyati va dramaturgiyasida tutgan o'rni. No teatri repertuarlari va pyesalarining yuzaga kelishi. No teatrining asosiy estetik g'oyalari. No teatrining niqoblari, ularning ahamiyati va o'ziga xos jihatlari. No teatri pyesalarining turlari va ularning yaratilish jarayoni. Yapon shahar dramaturgiyasining rivoj topishi. Kyogen hajviy pyesalarining yuzaga kelishi va rivoj topishi. Kyogenning o'ziga xos xususiyatlari. Kyogen pyesalarining namunalari va ularda satira unsurlarining namoyon bo'lishi. No, sarugaku va kyogenning o'zaro aloqalari⁷.

23-mavzu. Fujivara no Teika she'riyati va "Shinkokinvakashyu" to'plami

Muromachi davri adabiyotida she'riyat. Fujivara no Teika ijodi. "Shinkokinvakashyu" she'riy to'plamining yuzaga kelishi. "Shinkokinvakashyu" she'riy to'plamiga kiritilgan shoir va ularning ijodi. To'plamdan joy olgan she'rlarning mavzular ko'lami. Yugen estetikasining "Shinkokinvakashyu"da namoyon bo'lishi. She'rlardan na'munalar va ularning badiiy tahlili⁸.

24-mavzu. Renga she'riyati

⁶ https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000121306.html

⁷ https://koan.osaka-u.ac.jp/campusweb/campussquare.do?flowExecutionKey=c1ECDAF2C-CCAF-E9E9-5089-BA12BD3820C6_kDD897141-526C-7288-1E2A-69F0F29C4E12

⁸ https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000121306.html

Renga janrining yuzaga kelish jarayonlari, janr xususiyatlari, Tanrenga va chyorenga she'riyati. Renga sherlarining tuzilishi. Kakekotoba, engo, fushimono, sarikirai. Renga janrida ijod qilgan shoirlar ijodi: Ninjyo Yoshimoto, Shinkey, Soga.

YANGI DAVR ADABIYOTI

25-mavzu. Tokugava tarixiy davrida adabiy muhit

Tokugava tarixiy davrida adabiy jarayonlar. Shahar adabiyotining jadal rivojlanishi va qaror topishi. Ixara Saikaku, Matsuo Bashyo va Chikamatsu Monzaemon Tokugava davri adabiyotining uch buyuk namoyandalari sifatida. Genroku davri adabiyoti va uning yapon adabiyotida tutgan o'mi. Kanazoshi, ukiyozoshi, xaykay janrlarining yuzaga kelishi va taraqqiy etishi.

26-mavzu. "Xaykay" she'riy janri va xaykay maktablari

XVII asr yapon she'riyati va uning o'ziga xos jihatlari. Xaykay janrining qaror topishi. Shahar adabiyoti kontekstida nazmning rivoj topishi. She'riy maktablarning yuzaga kelishi. Teymon, Danrin va Shyofu maktablarining yuzaga kelishi, hamda ularning o'ziga xos jihatlari va dasturlari.

27-mavzu: Xaykay she'riyati rivojida Matsuo Bashyo ijodi

Matsuo Bashyo hayoti va ijodi. Bashyo xaykay to'plamlari va ularning tahlili. Bashyo xaykaylarining estetik tamoyillari: satori, sabi, karumi, hosomi, shiori, fueki-ryuko, fuga no makoto. "Shyofu" xaykay maktabi faoliyati va uning o'ziga xos jihatlari. Bashyodan keying xaykay rivoji.

28-mavzu. "Kanazoshi" nasri: janrlar tizimi va estetik o'ziga xosligi

"Kanazoshi" nasrining yuzaga kelishi va mohiyati. Kanazoshining o'ziga xos xususiyatlari va ichki janrlari. "Kanazoshi" janrida yaratilgan asarlardan namunalar. "Kiyomizu monogatari", "Zeraku monogatari", "Tsuyu dono monogatari" kanazoshi janrining namunalari sifatida.

29-mavzu. "Ukiyozoshi" va yangi davr yapon nasri

Tokugava davri adiblari ijodida "o'tkinchi dunyo" ("ukiyo") estetikasi va falsafasining namoyon bo'lishi. Ixara Saikaku hayoti va ijodi. Ixara Saikaku XVI asr nasrida "ukiyozoshi" yo'nalishining asoschisi sifatida. Ixara Saikaku ijodida "o'tkinchi dunyo" ("ukiyo") estetikasi va falsafasining namoyon bo'lishi. "Koshiyoku ichidai otoko" romani va "Koshiyoku. ichidai onna" novellalar to'plami ukiyozoshi namunasi sifatida⁹.

30-mavzu: Saykakudan keyingi yapon shahar nasriy adabiyoti – Ueda Akinari ijodi

Ueda Akinari hayoti va ijodiy faoliyatining bosqichlari. Yapon adabiyotida fantastik novella janri va uning rivojida Ueda Akinari ijodining ahamiyati. 「諸道

聴耳世間猿) (“San`atni yaxshi biladigan zamonaviy maymunlar”), 「世間妾形氣」 (“Zamonaviy ayollarning odatlar”) ukiyozoshi to`plamlari. 「雨月物語」 (“Yomg`irli oy hikoyalari”) va 「春雨物語」 (“Bahor yomg`iri hikoyalari”) to`plamlari.

31-32-mavzu. Gesaku adabiyotining yuzaga kelishi va yangi kitobxonlar auditoriyasi: “shyarebon”, “kibyoshi”, “kokkeibon”.

Gesaku adabiyoti: “ninjyobon”, “gokan”

“Shyarebon”, “kibyoshi”, “kokkeibon”, “ninjyobon”, “gokan” janrlari va ularning o`ziga xos jihatlari, yuzaga kelish omillari. Santo Kyoden, Koikava Xarumachi, Oota Nanpo, Xoseido Kisanji, Jippenhya Ikku, Shikitei Sanba, Xana Sanji, Tamenaga Shunsui ijodi¹⁰.

33-mavzu. “Yomihon” va Takizava Bakin ijodi

“Yomihon” janri va uning o`ziga xos jihatlari, yuzaga kelish omillari. Takizava Bakin hayot yo`li va ijodiy faoliyati. 「椿説弓張月」 (“Qisqarayotgan oy haqida ajoyib qissa”, 1806-1811) va 「南総里見八犬伝」 (“Satomilik sakkiz it qissasi”, 1814-1841) romanlarining badiiy tahlili.

34-35-mavzu: Jyoruri teatri. Kabuki teatri

Jyoruri va Kabuki teatrlari, ularning a uning o`ziga xos jihatlari, yapon madaniyati va dramaturgiyasida tutgan o`rni. Jyoruri va Kabuki teatrlari: shakllanish bosqichlari, teatr unsurlari. Jyoruri va Kabuki teatrlari repertuarlari va pyesalarining yuzaga kelishi. “Jidaymono” va “sevamono” pyesalari.

36-mavzu. Chikamatsu Monzaemon dramaturgiyasi

XVII asrda yapon adabiyotida teatr va dramaturgiya. Kabuki va bunraku teatrlari, hamda ularning o`ziga xos jihatlari. Chikamatsu Monzaemon XVII asr yapon adabiyotidagi eng yetuk dramaturg sifatida. Yapon dramaturgiyasida islohotlarning amalga oshirilishi. Chikamatsu Monzaemon dramaturgiyasi va uning o`ziga xos jihatlari.

ZAMONAVIY DAVR ADABIYOTI 1

37-mavzu. XIX asr oxiri – XX asr boshida yapon adabiy jarayonlari

Meyji inqilobining madaniyat va adabiyotga ta`siri. Yapon adabiyotiga Yevropa adabiyotining kirib kelishi. Yevropa adabiyoti bilan tarjimalar orqali tanish va nazariy jihatdan o`rganilish jarayoni. XIX asr oxiri – XX asr boshida adabiy jarayonlar. Adabiy yo`nalish, oqimlarning kirib kelishi va mavjud bo`lishining o`ziga xos jihatlari. Meyji davri adabiyotining namoyandalari va ularning ijodi. Futabatei Shimei, Tsubouchi Shyoyo, Higuchi Ichiyoning Meyji davri adabiyotidagi o`rni, hayoti va ijodi.

38-mavzu. Zamonaviy yapon adabiyotida romantizm va uning nomoyandalari

¹⁰ https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000121303.html

Yaponiya adabiyotida romantizm yoʻnalishining paydo boʻlishi. Yapon romantizm yoʻnalishining badiiy tamoyillari. Yangi davr yapon adabiyoti namoyandalari ijodida romantizm tamoyillari.

39-mavzu. Zamonaviy yapon adabiyotida naturalizm yoʻnalishi

“Shizenshyugi” harakati va naturalizm yoʻnalishining shakllanishi, uning oʻziga xos xususiyatlari. Gʻarb naturalizmiga munosabat va yapon naturalizmidagi izlanishlar. Rus adabiyoti bilan tanishuv va uning shizenshyugi yoʻnalishi taraqqiyotidagi oʻmi.

40-mavzu. Zamonaviy yapon realistik adabiyoti

Realizm yoʻnalishining yapon adabiyotida yuzaga kelishi va nazariy jihatdan qaror topishi. Futabatei Shimei ijodi va ilk yapon realistik romanining paydo boʻlishi. Yapon realizm yoʻnalishining “birinchi toʻlqini” namoyandalari ijodi.

41-mavzu. Taishyo davri va Shirakaba adabiy guruhi

Shirakaba guruhi va uning yuzaga kelishi. Shiga Naoya Shirakaba guruhining yorqin vakili sifatida. Shiga Naoya asarlarining mavzular koʻlami¹¹.

42-mavzu. Yapon neorealistik adabiyoti

Neorealizmning yapon adabiyotida vujudga kelishi. “Shinshichyo” adabiy jurnali va neorealist yozuvchilarining adabiy maydonga chiqishi. Shinshichyo guruhining namoyandalari va ularning ijodi haqida.

ZAMONAVIY DAVR ADABIYOTI 2

43-mavzu. Zamonaviy yapon adabiyotida “vatakushi shyosetsu” janri

XX asr yapon adabiyotida egoroman janrining yuzaga kelishi. Yapon egoromanining yapon tanqidchiligi tomonidan nazariy asoslanishi va uning oʻziga xos xususiyatlari.

44-mavzu. Yapon adabiyotda modernizm yoʻnalishi

Yapon modernizmining yuzaga kelishi va shakllanishi. Yapon modernizm adabiyotiga tegishli 3 konseptsiya. Yapon nazmda modernizm tamoyillarining yuzaga kelishi. Urushdan keying yillardagi yapon adabiyotida modernizmning namoyon boʻlishi.

45-mavzu. Yapon adabiyotida neosensualizm oqimi

Neosensualizmning yapon adabiyotida vujudga kelishi. Yokomitsu Riichi neosensualizm adabiyotining vakili sifatida. Yokomitsu Riichi asarlari va ularda neosensualizm asoslarining namoyon boʻlishi.

46-mavzu. Urushdan keyingi demokratik adabiyoti rivojida Miyamoto Yuriko ijodi

¹¹ https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000164006.html

Miyamoto Yuriko urushdan keying davr yapon adabiyoti vakili sifatida. Yapon sotsial realizmi rivojida Miyamoto Yurikoning tutgan o'ri. Miyamoto Yurikoning "Nobuko", "Ikki uy", "Muhim davrlar" avtobiografik trilogiyasi va uning ahamiyati.

47-mavzu. Yaponiyada "atom bombasi fojeasi" va adabiyot

Yapon adabiyotida "genbaku bungaku" – "atom bombasi fojeasi" adabiyotining yuzaga kelishi. Xiroshima fojeasiga bag'ishlangan asarlarining yaratilishi. Ota Yoko ijodi va uning asarlarida Xiroshima halokatining ifodalanishi¹².

48-mavzu. XX asr ikkinchi yarmida yapon adabiyotida Xaruki Murakami ijodi

Yapon adabiyotida postmodernizm va uning namoyandalari. Xaruki Murakaming hayoti va ijod yo'li. Xaruki Murakami ijodining o'ziga xos jihatlari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

QADIMGI VA ILK O'RTA ASR ADABIYOTI

1. Yapon adabiyotini shakllanishi va davrlashtirish masalalari
2. Nara davridagi tarixiy-madaniy jarayonlar (VII-VIII asrlar)
3. "Kojiki" yodgorligi
4. "Manyoshyu" she'riy to'plamining badiiyati
5. Xeyan davrida adabiy muhit va saroy adabiyotining rivojlanishi (IX-XII asrlar). Xeyan davri adabiy janrlarning tavsifi
6. "Monogatari" nasriy adabiyoti. "Takatori monogatari" va "Ochikubo monogatari" yodgorliklari
7. "Uta monogatari" janrining xususiyatlari. "Ise monogatari" – liro-epik yodgorligi
8. "Kokinvakashyu" she'riy to'plami
9. Xeyan davri adabiyotining shakllanishida ayollarning o'ri
10. "Nikki" va "zuixitsu" janrlarining shakllanishi
11. Xeyan davri adabiyoti romani – "Genji monogatari"
12. Setsuva adabiyoti

O'RTA ASR VA YANGI DAVR ADABIYOTI

13. Kamakura-Muromachi davrlarida tarixiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va madaniy hayot
14. "Gunki" janrining shakllanishi va uning janr xususiyatlari
15. Heike monogatari yodgorligining janr xususiyatlari
16. Kamakura-Muromachi davrida setsuva va uning namunalari
17. Kundalik-xotiranomalar adabiyoti. Sayohatnomalar. Avtobiografik qissalar

¹² https://syllabus.adm.nagoya-u.ac.jp/data/2025/01_2025_X320000123311.html

18. Kamakura davri adabiyotida "zuyxitsu" janri. Kamo no Chyomei ijodi va "Xojoki" yodgorligi.
19. Kenko hoshi ijodi va "Tsuredzuregusa" yodgorligi
20. Saigyo ijodi
21. "Otogizoshi" nasri
22. No teatri va "kyogen"
23. Fujivara no Teika she'riyati va "Shinkokinvakashyu" to'plami
24. Renga she'riyati
25. Tokugava tarixiy davrida adabiy muhit
26. "Xaykay" she'riy janri va xaykay maktablari
27. Xaykay she'riyati rivojida Matsuo Bashyo ijodi
28. "Kanazoshi" nasri: janrlar tizimi va estetik o'ziga xosligi
29. "Ukiyozoshi" va yangi davr yapon nasri
30. Saykakudan keyingi yapon shahar nasriy adabiyoti – Ueda Akinari ijodi
31. Gesaku adabiyotining yuzaga kelishi va yangi kitobxonlar auditoriyasi: "shyarebon", "kibyoshi", "kokkeibon".
32. Gesaku adabiyoti: "ninjyobon", "gokan"
33. "Yomihon" va Takizava Bakin ijodi
34. Jyoruri teatri
35. Kabuki teatri
36. Chikamatsu Monzaemon dramaturgiyasi

ZAMONAVIY DAVR ADABIYOTI

37. XIX asr oxiri – XX asr boshida yapon adabiy jarayonlari
38. Zamonaviy yapon adabiyotida romantizm va uning nomoyandalari
39. Zamonaviy yapon adabiyotida naturalizm yo'nalishi
40. Zamonaviy yapon realistik adabiyoti
41. Taishyo davri va Shirakaba adabiy guruhi
42. Yapon neorealistik adabiyoti
43. Zamonaviy yapon adabiyotida "vatakushi shyosetsu" janri
44. Yapon adabiyotda modernizm yo'nalishi
45. Yapon adabiyotida neosensualizm oqimi
46. Urushdan keyingi demokratik adabiyoti rivojida Miyamoto Yuriko ijodi
47. Yaponiyada "atom bombasi fojeasi" va adabiyot
48. XX asr ikkinchi yarmida yapon adabiyotida Xaruki Murakami ijodi

IV. Mustaqil ta'lim*

IV. 1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- Qadimgi yapon asotirlari, ilk yapon yozma yodgorliklari
- Nara davri adabiyoti va uning namunalari
- Nara davri adabiyoti namoyanlarining ijodi
- Yapon o'rta asr adabiyotida she'riyat
- Yapon o'rta asr adabiyotida nasr
- Xeyan davrida she'riyat va nasriy adabiyot
- Xeyan davri yapon adabiyoti yorqin namoyandalarning ijodi
- Yapon o'rta asr adabiyotida badiiy asarlarning tarkibi, badiiy asarda shakl va mazmun, muallif mahorati masalalari

- O'rtta asrlarda yapon dramaturgiyasining rivoji, dramaturglar pyesalarining badiiy tahlili
- Kamakura-Muromachi davrida nasriy adabiyot va nazm
- Kamakura-Muromachi davri adabiyoti namoyandalari va ularning ijodi
- Tokugava davrida nasr, nazm va dramaturgiya
- Yapon shahar adabiyoti namoyandalari va ularning ijodi
- Zamonaviy yapon nasriy va nazmiy adabiyotining rivojlanish bosqichlari
- Zamonaviy yapon adabiyotiga G'arbning ta'siri. Adabiy yo'nalish va oqimlar.
- Zamonaviy yapon dramaturgiyasining rivoji. Dramatik asarlarida ko'tarilgan mavzular, qahramon va personaj tushunchalari
- Eng yangi davr yapon adabiyoti

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavzularini o'rganib chiqish;
- Ibrat farzandlari platformasidan mustaqil ta'lim doirasida samarali faoydalanish;
- tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish;
- maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;
- o'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish;
- turli mavzularga doir adabiyotni o'qish (uy o'qishi /domashneye chteniye);
- ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish;
- taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash;
- mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash;
- ilmiy ma'ruza tayyorlash va taqdimot qilish.

IV. 2. "O'rganilayotgan mintqa (mamlakat) adabiyoti (Yapon adabiyoti)" fanidan kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

- Kaifuso she'rlar to'plami va uning badiiy tahlili
- Kyogen farslarining tarjimasi va tahlili
- Otogizoshi namunalarining yapon adiblari ijodidagi talqini
- Setsuva namunalarining yapon adiblari ijodidagi talqini
- Ninjyobon namunalarining tarjimasi va tahlili
- Yomihon namunalarining tarjimasi va tahlili
- Gokan namunalarining tarjimasi va tahlili
- Shyarebon namunalarining tarjimasi va tahlili
- Kokkeibon namunalarining tarjimasi va tahlili
- Meishyoki namunalarining tarjimasi va tahlili
- Sayohotnoma asarlarining tarjimasi va tahlili
- Yapon fantastik adabiyoti va uning taraqqiyot bosqichlari
- Yapon folklori va uning janrlari
- Izumi Kyoka asarlarining tarjimasi va tahlili
- Ariyoshi Savako asarlarining tarjimasi va tahlili

- Xiratsuka Raichyo asarlarining tarjimasini va tahlilini
- Yapon detektiv adabiyotining taraqqiyot bosqichlari va ularning o'ziga xos jihatlari
- Tanizaki Jun'ichiro asarlarining tarjimasini va tahlilini
- XXI asr yapon adabiy muhiti
- Yapon ayollar adabiyotining taraqqiyot bosqichlari va ularning o'ziga xos jihatlari
- Yapon bolalar adabiyoti
- Yapon o'smirlar adabiyoti
- Shin'ichi Hoshi asarlarining tarjimasini va tahlilini
- Kukuchi Kan asarlarining tarjimasini va tahlilini
- Yapon bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlari va ularning o'ziga xos jihatlari
- Yapon postmodernistik adiblari ijodining tahlilini
- Miyazava Kenji asarlarining tarjimasini va tahlilini
- Edogava Ranpo asarlarining tarjimasini va tahlilini
- Ueda Akinari asarlarining tarjimasini va tahlilini
- Takizava Bakin asarlarining tarjimasini va tahlilini

* *Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.*

3.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- badiiy adabiyotning mohiyati, uning jamiyatdagi o'rnini va vazifalari to'g'risida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;
- badiiy adabiyotni san'atga dohil etuvchi obrazlilik va obraz tushunchalarini bilishi va ulardan foydalana olishi **malakalariga ega bo'lishi**;
- badiiy asar tuzilishi, uning shakli va mazmun tomonlari, badiiy asar syujeti, kompozitsiyasi, badiiy til, inson obrazini yaratish yo'llari va vositalari, adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo'nalishlar bo'yicha echimlar qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**. sharq tilidagi adabiy matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qila olishi;
- sharq tilida chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiy masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borish **ko'nikmasiga ega bo'lishi**;
- har turli va murakkab matnlarni o'qitish olib borilayotgan tildan asosiy sharq tilining hozirgi adabiy shakliga yozma tarjima qila olish;
- sharq tilida muloqot qilish, nutq so'zlash;
- sharq tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga suhbat, nutq va ma'ruzalarni og'zaki izchil va sinxron tarjima qila olish;

	<p>– sharq tili va o‘qitish olib borilayotgan tildagi ma’lumotlarni qo‘llab, annotatsiya, referat, ma’lumotlar to‘plash, tuzish malakalariga ega bo‘lishi kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo‘lib ishlash.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, mustaqil ta’lim bo‘yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish va/yoki og‘zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Konishi J., Gatten A., Teele N. A History of Japanese Literature, Volume 1: The Archaic and Ancient Ages. Princeton University Press, 2017. - 488 p. 2. Konishi J., Gatten A., Teele N. A History of Japanese Literature, Volume 2: The Early Middle Ages. Princeton University Press, 2017. - 482 p. 3. Shirane H, Suzuki T, Lurie D, eds. The Cambridge History of Japanese Literature. Cambridge University Press; 2016. – 847 p. 4. Konishi J., Gatten A., Harbison M. A History of Japanese Literature, Volume 3: The High Middle Ages. Princeton University Press, 1984. - 678 p. 5. Ходжаева Р., Қосимова Г. Япон адабиётида замонавий адабий йўналишлар ва оқимлар. Ўқув қўлланма. Т., 2019. 6. Treat J. W. The Rise and Fall of Modern Japanese Literature. University of Chicago Press 2018. – 368 p. 7. Tansman A. Japanese Literature. A Very Short Introduction. Oxford University Press, 2023. – 160 p. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

12345

4. Горегляд В.Н. Дневники и эссе в японской литературе X-XIII в. М.: Наука, ГРВЛ, 1975. – 386 с.
5. Конрад Н.И. Очерки японской литературы. Статьи и исследования. М., Худ. лит., 1973. – 462 с.
6. Конрад Н.И. “Японская литература. От “Кодзики” до Токутоми”. М.: Наука. Главная редакция восточной литературы. 1974 – 506 с.
7. Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. Наука, Москва 1978. – 462 с

Scopusdan maqolalar

1. Garry Eaton, A Note on Haiku, The Cambridge Quarterly, Volume 38, Issue 4, December 2009, Pages 328–337, <https://doi.org/10.1093/camqtly/bfp019>
2. Chozick M. Eating Murasaki Shikibu: Scriptworlds, Reverse-Importation, and The Tale of Genji //Journal of World Literature. – 2016. – Т. 1. – №. 2. – С. 259-274. https://brill.com/view/journals/jwl/1/2/article-p259_9.xml
3. Rotaru A. Yoko Tawada’s Kafka Kaikoku: Modernity, Sacrifice, and World Literature //Journal of World Literature. – 2017. – Т. 2. – №. 4. – С. 454-474. <https://doi.org/10.1163/24056480-00204005>

Axborot manbalari

1. www.ziyo.net
2. <https://ziyouz.uz/>
3. <https://cii.nii.ac.jp/>
4. <https://www.aozora.gr.jp/>

7. Fanning o‘quv dasturi Yaponshunoslik oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil “26” 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil “28” 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas’ul:**

G.B.Qosimova –Yaponshunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD.

9. **Taqrizchilar:**

U.U.Muhibova –Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Janubiy Osiyotilla va adabiyoti oliy maktabi professori, f.f.d.;

X.Sh.Gafurova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, PhD.